

KASB- HUNAR MAKTABLARIDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Mahmudova Dilafruz Sultannazirovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manbaa ekanligi, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkinligi haqida, maktab bog`chalarda va kasb-hunar maktablarida kitobxonlikni shakllantirish, o`quvchilarni kitob o`qishga qiziqtirish va ularni aqliy faoliyatini rivojlantirish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: o`quvchi, maktab, faoliyat, rivojlantirish, shakllantirish, kitobxonlik, qiziqtirish, barkamollik.

Kitob insonni barkamollik sari yetaklaydigan, qalban va aqlan o'sishida oq va qora, yaxshi yomonni, buniyodkorlik va vayronkorlikning farqini ajratishda yordan beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan nodir kashfiyat, ong maxsulidir. Kitob insonni manan boyitadi. Vatanparvarlik tuyg'ularini, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalaydi. Uning hayotini yorituvchi nur bo'lib baxt-saodat sari yetaklaydigan do'st bo'lib xizmat qiladi. Shuni e'tiborga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lган qiziqish kitobxonlikni targ'ib qilishga oid keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha rejalashtirilgan tizimli ishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida" gi 2017 yil 13 sentyabrda qabul qilingan PQ 3271 sonli qarori fikrimizni yorqin dalili bo'la oladi. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarini rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish"ni yo'nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo'ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o'rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar.

Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini “mo’jizalar davri” deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob o’qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so’zlashishni mukammal o’rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo’lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo’lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan.Muqaddas maskanda ota-onalarning bolalarni kitobga bo’lgan qiziqishlarini orttirishda o’zlari namuna bo’lishlari va o’zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma’naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manbaa, avlodlardan-avlodlarga o’tib kelayotgan -intellektual meros sifatida mavqeい hamda ahamiyatini saqlash va hatto tiklashga ehtiyoj sezilayapti. Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, -tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o’ylangan tizim asosida tashkil etish lozim. Bundan tashqari, yosh avlodning kitobga bo’lgan qiziqishini rag’batlantirish kerak.

Mutolaaga qiziqish susayishi, o’z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko’plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat’iy chora-tadbirlar ko’rilmoxda. Umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilayotir. Ularda davlat hokimiyyati hamda bosh-qaruvi organlari, kutubxonalar, ta’lim muassasalari, ta’lim, ilm-fan va tadbirkorlik sub'yektlari, sohadagi -fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish ko'zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongini shakllantirish, aholi turli qatlami o’rtasida mutolaasini madaniyatini manzilli qo’llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma’naviy va madaniy ehtiyojlariga to’liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyo tajribasiga ko’ra, bunday maqsadli dasturlar hamda konsepsiylar qabul qilinishi ijobiy natija beradi.

Shu ma’noda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tar-qatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi farmoyishi bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda maxsus ishchi guruh Kitob mahsulotlarini chop etish va tar-qatish tizimini rivoj-lantirish, kitob mutolaasi va -kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda tar-g’ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz -kutubxonalarida mutolaani rag’batlantirish, kitobxonlik va

kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish –tizimini takomillashtirish, –kitob o'qish holatini monitoring qilish bo'yicha chora-tadbirlarga alohida urg'u berilmoqda.

Kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida keng aholi qatlamini kitob mutolaasiga jalg qilish va ularni kitob bilan ta'minlash bo'yicha ommaviy tadbirlar, xayriya aksiyalarini tashkil etish, ijtimoiy reklamalardan unumli foydalanish, o'zbek hamda jahon adabiyotining, taniqli mualliflarning mumtoz va zamonaviy badiiy asarlarini targ'ib qilish, ushbu sohada jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ko'ngillilar (volontyorlik) harakatini rivojlantirish, kitobxonlik muammosining keng jamoatchilik muhokamasini, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda tashkil etish bo'yicha aniq ishlar olib borilishi ko'zda tutilayotir.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning –tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Shuning uchun ham kasb-hunar mакtablarida, bog`cha va maktablarda yoshlarni kitob o'qishga ilm olishga bo`lgan qiziqishi shakllantirish borasida keng ko'lamlı tadbirlar tashkil qilinmoqda. Binobarin, aynan –mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning –ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir. Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada –ommalashib borayotgani muloqotning audio, video vositalari, radio, televideeniye, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o'rın egallashi bilan odamlarda kitob o'qishga qiziqish yo'qoladi, degan fikr xato ekanligini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalarining yangi turlari paydo bo'lishi natijasida kitobxonlik birmuncha pasaygan bo'lsada, matbuot odamlarda kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi president qarori. 13.09.2017y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "5 ta muhim tashabbus" i